

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE SEMANTIC FEATURES OF GENDER LEXIS IN ENGLISH, RUSSIAN, AND UZBEK LANGUAGES

Mukhammad Chariyevich CHUTPULATOV

Vice-Rector for Academic Affairs

Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

INGLIZ, RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI GENDER LEKSIKASI SEMANTIK XUSUSIYATLARINING QIYOSIY-CHOQ'ISHTIRMA TAHLILI

Muxammad Chariyevich CHUTPULATOV

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СЕМАНТИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ГЕНДЕРНОЙ ЛЕКСИКИ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Мухаммад Чариевич ЧУТПУЛАТОВ

Проректор по учебной работе

Доктор философии по филологических наукам (PhD)

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Chutpulatov M.Ch. Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi gender leksikasi semantik xususiyatlarining qiyosiy-choq'ishtirma tahlili // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 6. — B.140-162.

<https://doi.org/10.36078/1735412162>

Received: October 26, 2024

Accepted: December 17, 2024

Published: December 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. Gender dimorphism that exists in human real life is usually viewed through the prism of gender stereotypes of femininity (femininity) and masculinity (masculinity). At the same time, the totality of qualities belonging to each gender — male and female and other prototypes in the public and individual consciousness — is revealed. At the same time, the totality of qualities belonging to each gender — male and female and other prototypes in the public and individual consciousness — is revealed. Therefore, despite several works, there are many unresolved problems in the nature of the term, and their study and solution certainly require access to information about modern linguistic trends. The purpose of this research is to study the semantic features of gender vocabulary in English, Russian and Uzbek languages in a linguistically contrastive way. To highlight the topic of the article, linguistic description and the comparative-contrast methods were used. A comparative study of the gender vocabulary of English, Russian and Uzbek languages was carried out and it was substantiated that the features associated with the democratization of gender speech occur due to the approach of women's speech to men's speech while maintaining its natural gender foundations, and that the scale and characteristics of this gender speech democratization are different in the languages being compared. Monolingual and comparative analysis of the use of gender vocabulary in the material of works of art in the languages being studied is not only linguistic, but also extralinguistic in nature,

that is, features of the historical development of national culture, traditions, national mentality and national culture. society from the point of view of religious, speech and behavioral views of men and women, the features of such factors have been proven

Keywords: gender linguistics; genderonym; grammatical gender category; semantic feature; neutral words.

Annotatsiya. Insonning real hayotida mavjud bo'lgan jinsiy dimorfizm, odatda, ayollik (femininlik) va erkaklik (maskulinlik) gender stereotiplari prizmasi orqali ko'rib chiqiladi. Bunda har bir jinsga tegishli sifatlar yig'indisi — jamoat va individual ongda erkak va ayol hamda boshqa prototiplar namoyon bo'ladi. Binobarin, qator ishlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, termin tabiatida juda ko'p yechilmagan muammolar bo'lib, ularni o'rganish va hal etish, albatta, zamonaviy lingvistik yo'nalishlarga oid ma'lumotlarga murojaat qilishni talab etadi. Ushbu ilmiy ishning maqsadi ingliz, rus va o'zbek tillari gender leksikasi semantik xususiyatlarini lingvokontrastiv tadqiq etishdan iborat. Maqola mavzusini yoritishda lingvistik tavsif uslubi hamda qiyosiy-chog'ishtirma uslublari qo'llanilgan. Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi gender leksikasining qiyosiy tadqiqi olib borilib, gender nutqining demokratlashuvi bilan bog'liq o'ziga xosliklarni ayollar nutqining o'z tabiiy gender asoslarini saqlagan holda erkak nutqiga yaqinlashishi orqali yuz berishi, qiyoslangan tillarda mazkur gender-nutq demokratlashuvining hajmi va xususiyatlari turlicha bo'lishi asoslandi. Tadqiq etilayotgan tillardagi badiiy asarlar materialida gender leksikasi qo'llanilishining monolingval va qiyosiy tahlili faqat lingvistik emas, balki ekstralingvistik, ya'ni milliy madaniyat, an'analar, milliy mentalitet, milliy sotsiumning diniy hamda erkaklar va ayollar nutqiy va xulqiy qarashlari nuqtayi nazaridan tarixiy rivojlanishi xususiyatlari kabi omillardan ham kelib chiqadigan o'ziga xosliklari dalillandi.

Kalit so'zlar: gender tilshunoslik; genderonim; grammatik rod kategoriyasi; semantik xususiyat; neytral so'zlar.

Аннотация. Половой диморфизм, существующий в реальной жизни человека, обычно рассматривается через призму гендерных стереотипов феминности (женственности) и маскулинности (мужественности). При этом раскрывается совокупность качеств, принадлежащих каждому полу — мужскому и женскому и другим прототипам в общественном и индивидуальном сознании. Поэтому, несмотря на существование ряда работ, в природе термина существует множество нерешенных проблем, их изучение и решение, безусловно, требуют обращения к информации о современных лингвистических тенденциях. Целью статьи является изучение семантических особенностей гендерной лексики английского, русского и узбекского языков лингвоконтрастным способом. Для освещения темы статьи были использованы метод лингвистического описания и сравнительно-контрастный метод. Проведено сравнительное исследование гендерной лексики английского, русского и узбекского языков и обосновано, что особенности, связанные с демократизацией гендерной речи, происходят за счет приближения женской речи к мужской речи при сохранении ее естественных гендерных основ и что масштабы и характеристики этой гендерно-речевой демократизации различны в сравниваемых языках. Одноязычный и сопоставительный анализ использования гендерной лексики в материале художественных произведений на изучаемых языках носит не только лингвистический, но и

экстралингвистический характер, то есть в нем отражаются особенности исторического развития национальной культуры, традиций, национального менталитета, национальной культуры, общества с точки зрения религиозных, речевых и поведенческих взглядов мужчин и женщин. В статье были доказаны особенности таких факторов.

Ключевые слова: гендерная лингвистика; гендероним; грамматическая гендерная категория; семантический признак; нейтральные слова.

Kirish

Zamonaviy ilmiy bilish paradigmasida gender erkak va ayol o'zaro faoliyati me'yorlari bilan bog'langan ko'p qamrovlilikni o'zida aks ettiruvchi hal qiluvchi kalit — tushunchadir (23). Tilshunoslikda til materialiga bo'lgan gender yondashuv grammatik rod kategoriyasining biologik va ijtimoiy jins g'oyasi bilan munosabati tushunchalarni lisoniy vositalar yordamida ro'yobga chiqishini o'zaro bog'laydi. So'nggi 20 yil ichida jahon tarixida ayolning o'rni va rolini tahlil qilish va tadqiq qilishga bag'ishlangan ingliz tilida ko'plab ilmiy maqola va monografiyalar paydo bo'ldi. Bu esa ayolning jamiyatdagi rolga qiziqish va lingvistik ekstralingvistik doirada amalga oshirilgan gender tadqiqotlariga shubhasiz yordam bergan.

Ingliz tiliga berilgan ta'rif bahs-munozarali va ilmiy debatlarning predmeti bo'lishiga qaramasdan, ayrim tadqiqotchilar ingliz tili hozirgi kunga kelib global til talablariga javob berishi va xalqaro hamda madaniyatlararo muloqotda asosiy omil ekanini ta'kidlaydilar (2). Rus tilshunosi, poliglot, ko'plab o'quv qo'llanmalar muallifi, sinxron tarjimon, pedagog Dmitriy Petrov 2018-yil 25-mart kuni "Aktion-MSFER" mediaguruhi muharrirlari bilan uchrashuvda: "Tarixiy uchta davr mobaynida ingliz tilidagi qo'shimchalar yo'qolib ketganligini unutmaslik lozim. Ingliz tili XV asrga 6 ta kelishik, 3 ta rod va tuslanish bilan kirib keldi. Oradan 100 yil o'tib, Shekspir davriga kelib ingliz tili ularning barchasidan mahrum bo'ldi. Aynan bu yo'qotish universallik uchun zamindir. Nega u universal? Chunki u eng sodda va arifmetik qoidalar asosida qurilgan til" (Books for You. Полиглот Дмитрий Петров: 5 ярких языковых тенденций, которые стремительно меняют мир (45)).

Tarixiy fakt shundan dalolat beradiki, qadimgi ingliz tilida ot, olmosh, sifat va aniqllovchi, 5 ta kelishik (bosh, tushum, qaratqich, o'rin-payt va chiqish kelishigi), fe'llar esa 9 ta asosiy tuslanish (7 ta kuchli, 2 ta kuchsiz)ga ega bo'lishidan tashqari, otning grammatik rod kategoriyasi insonlarni ifodalovchi otlarning haqiqiy biologik jinsga mos kelmasligi mumkin edi. Masalan, Quyosh so'zi grammatik ayol (j.r), Oy — grammatik erkak (m.r.) rodiga daxldor bo'lsa, ayol/xotin so'zi o'rta (s.r.) jinsga tegishli bo'lgan (36).

Asosiy qism

I. I. Skachkova tilda grammatik rod kategoriyasi mavjud bo'lmasa ham universal jins kategoriyasi muayyan ko'rinishda namoyon bo'lishini qayd etadi (16). Masalan, ingliz tilidagi anaforik olmoshlar hayvon

nomlarida ayol rodi berishini ta'kidlash lozim. Masalan: **he-bear — she-bear (erkak ayiq — urg'ochi ayiq), he-goat — she-goat (taka—echki), he-cat — she-cat (erkak mushuk — urg'ochi mushuk)**. Kapetinglardan bo'lgan fransuz qirollik oilasi bo'lmish ikki ingliz qirolichalari Izabella va Margarita Anjuyskayalar **She — Wolf of France** — fransuz urg'ochi bo'risi avlodlari deb atalgan (41).

Anaforik olmosh qo'llanmay va kontekst yordamisiz yasaluvchi hayvonlar (*wolf, cat, bear, deer* va h.k.) ham jonlilarni anglatuvchi otlardek gender-neytral hisoblanishi mumkin. Masalan, *friend* (do'st) so'zi gender-neytral bo'lsa, *girlfriend/boyfriend* so'zi grammatik rodni ko'rsatuvchi gender-bo'yoqdor komponentga ega. **Pupil, friend, teacher, cousin** kabi ko'plab so'zlar bilan ham shu kabi holat kuzatiladi. Ingliz — **male — female — man — woman — boy — girl** komponentlari obyektning gender identifikatsiyasini ko'rsatish uchun nisbatan tez-tez ishlatiladi, agar personajning gender daxldorligini aniqlashtirish talab etilsa, masalan, **cowboy, bellboy, salesgirl, schoolgirl, male heir — female heir** kabi qo'llaniladi (6, 20–25).

E. K. Arutyunov va V. O. Lisisinalar gender omilga (ingliz tilida iqtisodiyot sohasiga doir neologizmlar materiali asosida) bag'ishlangan ilmiy asarlarida ingliz tilida gender komponentga ega bo'lgan otlarga nisbatan “genderonim” atamasini qo'llaydilar, ya'ni otni erkak yoki ayol rodiga konteks yordamisiz ko'rsatish mumkin bo'ladi, natijada erkak yoki ayol jinsidagi shaxsga ishora qiladi (24). Masalan, **businessman — businesswoman, king — queen, actor — actress, nun — monk** so'zlari genderonimlar sifatida semantik gender komponentni o'z ichiga oladi. Shunday bo'lsa-da, femininlik komponentli genderonimlarning ko'pchiligi erkak roddagi mos otlarga **-ess** suffiksini qo'shish orqali yasalganligini ta'kidlash lozim **-ess: author — authoress, shepherd — shepherdess, duke — duchess, actor — actress, host — hostess, poet — poetess, lion — lioness, tiger — tigress, steward — stewardess**. Bundan tashqari, **queen** — qirolicha oti ististno bo'lishi mumkin, chunki u **king** — qirol otidan yasalgan bo'lib, unikal genderonim hisoblanadi: *English is one of the few Indo-European languages to have a word for “queen” that is not a feminine derivative of a word for “king”* (40). (Ingliz tili kam sonli hind-yevropa tillaridan bo'lib, unda “qirolicha” so'zi “qirol” so'zining ayol derivati hisoblanmaydi).

Erkak roddagi otlarga **-ess** suffiksini qo'shish orqali hosil bo'lgan genderonimlar tilda ko'pchilikni tashkil qilishi aniq. Suffiksning o'zi fransuz tilidan olingan bo'lib, elektron etimologik lug'atda “ayol roddagi ot yasovchi suffiks” — “**fem**” quyidagicha izohlanadi: **-ess**

Bundan tashqari, ingliz tilidagi ayol genderonimlarining katta qismi kasb nomi va uning tarkibidagi **man** qismini **womana** almashtirish orqali yasalishi avval erkaklarga tegishli bo'lgan kasbga ayollar ham egalik qilishidan dalolat beradi: **policewoman, businesswoman, churchwoman, congresswoman, clergywoman**.

Demak, har ikki jinsdagi shaxslarni anglatuvchi neytral so'zlar erkak rod (avval faqat erkaklarga tegishli bo'lgan kasblar) hisoblansa, ayol roddagi so'zlar esa erkak roddagi so'zlardan yasaladi, masalan, ayrim suffikslarni qo'shish orqali yasaladi va h.k.

Ingliz xalq maqollari va matallarida erkak jinsi vakillari nuqtayi nazaridan ayollarning salbiy xususiyatlari qayd etiladi: ko'p gapirish, qaysarlik, o'zgaruvchanlik, ahmoqlik, ya'ni ayolning salbiy konnotatsiyalari aks etadi (25, 64–66):

A woman's tongue wags like a lamb's tail (Ayolning tili qo'zichoqning dumidek qimirlaydi).

Women are as fickle as April weather (Ayollar bahor havosiga o'xshab o'zgaruvchan).

E. V. Demchenko ingliz va rus tillarida muloyimlikni ifodalashning semantik-sintaktik vositalarini o'rgangan, uning ta'kidlashicha, XX asrda rus va xorij olimlari ishlarini o'rganish til va nutqiy modellarning erkak hamda ayollarga xos ma'lum stereotiplarga ajratish mavjudligini ko'rsatdi. XX asr oxiri — XXI asr boshlarida faqat erkaklargagina tegishli bo'lgan sohalarga ayollar qatnashishiga imkon beruvchi ijtimoiy o'zgarishlar ilgari nomunosib, odobsizlik hisoblangan verbal xulq-atvor o'zgarishlariga olib keldi. E. V. Demchenko amalga oshirgan ma'lumotlarning statistik tahlili hozirgi kunda ayollar so'zlashuvida ingliz tilida uzr so'rash kam uchramoqda, ayollarda muloyimlik kategoriyasini ifodalovchi markerlar 40,9%ni, erkaklarda esa 59 %ni tashkil qilmoqda. Ingliz tilida muloyimlikni ifodalovchi "please" marker erkaklarda ayollarga qaraganda ko'proq uchraydi (erkaklarda 52 %, ayollarda 47,6 %). E. V. Demchenkning fikricha, biror narsani so'rashda ular tahdid qilishni ifodalovchi akti yumshatishga harakat qiladilar (13, 10–11).

Ingliz tilidagi gender leksikaning semantik xususiyatlari ko'plab hind-yevropa tillari (fransuz, nemis va h.k.)da bo'lgani singari quyidagi hollarda namoyon bo'ladi:

— ingliz tilida bir necha asrlardan beri ijtimoiy va lisoniy sathda shakllanib kelingan erkak va ayollar xatti-harakatlari bo'yicha gender stereotiplariga ma'lum darajada asoslangan gunohkorlik to'g'risidagi Injildagi afsona;

— o'rta asrda ingliz tilidagi universalizatsiya va ayrim lisoniy birliklarning yo'qolishi tendensiyasi doirasida rod kategoriyasi yashirin hisoblanadi. Kontekst yoki gender belgilarga ega bo'lmagan ko'plab otlar erkak rodning apriori (oldingi) hisoblanadi yoki gender-neytral otlar sifatida qabul qilinadi. Masalan, *The cat is outside the house. Cat* — erkak roddagi ot, lekin ushbu kontekstda biologik jinsga bog'lanmasdan hayvonni ifodalaydi, biroq **he/she** anaforik olmoshlari bilan birikib kelganda jinsni ko'rsatuvchi ot — genderonim turiga o'tadi;

— otlarning sifat bilan yoki **male/female** sifatlari bilan birikkan otlar yoki **man/woman, boy/girl** otlari yordamida yasalgan qo'shma so'zlar gender konnotatsiyani aniqlashtirish imkonini beradi;

— ko'plab ayol roddagi otlar erkak roddagi so'zlardan yasalgan, masalan, fransuz tilidan olingan **-ess** suffiksini qo'shish orqali yasaladi. Ayol genderonimlari yasallishining asosiy usuli morfologik (suffiksial, o'zakka qo'shimcha qo'shish) usul hisoblanadi;

— ingliz tilidagi erkak roddagi otdan yasalmagan va vaqt o'tishi bilan ma'nosi o'zgarmagan genderonimotlar nisbatan kam (**queen**)roq ekanligi ingliz tilida erkak dominanti saqlanib qolingani dalolat beradi;

— suhbatdosh, ayniqsa, ayol kishiga murojaat qilish modellarida o'zgarishlar bo'lgan, hamsuhbatning yoshi va ijtimoiy maqomini

aniqlashtiruvchi modeldan ayolning oilaviy holatini aniqlashtiruvchi modelga aylangan;

— ingliz tilidagi muloyimlik kategoriyasini ifodalovchi leksik-semantik vositalar, XIX asr romanlaridan olingan dialoglar bilan zamonaviy pyesalardan olingan dialoglar asosida ayollar nutqini o'rganish erkak va ayol nutqiy xulq-atvori orasidagi tafovutning yo'qolganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, ingliz tilida gender belgini o'rganish va tahlil qilish zamonaviy ingliz tilida gapiruvchi jamiyatda erkak va ayol rolli vazifalari tasavvuri to'g'risidagi lisoniy va nutqiy o'zgarishlarni fonetika, morfologiya, leksika va sintaksis qatlamida o'rganish imkonini beradi.

Rus tilshunosligida til sohiblarining jinsiy tafovutga ko'ra bo'linishini tadqiq qiluvchi gender tadqiqotlari XX asrning 80-yillari oxiri va 90-yillari boshlarida amalga oshirila boshlandi, bu yangi ilmiy tarmoq bo'lgan lingvistik genderologiya (gender tilshunosligi)ni tashkil qildi. Erkak va ayol nutqidagi qonuniyatlarni tadqiq qilishga A. V. Kirilina (19), A. V. Vandisheva (6, 25), A. A. Gvozdev (8), O. V. Kirillova (21), I. A. Tupisina (31) kabi tilshunoslar ilmiy izlanishlari misol bo'la oladi. E. I. Goroshko (10), V. V. Potapov (26) singari ko'plab olimlar gender tilshunosligining rivojiga ilmiy tadqiqotlari bilan hissa qo'shganlar.

Gender tadqiqotlariga doir ilmiy adabiyotlar tahlili tilning gender aspektlari va kommunikatsiyani o'z tadqiqot obyekti sifatida ilmiy yo'nalishga ega lingvistik genderologiya sifatida shakllanishiga imkon beruvchi gender tilshunosligiga bo'lgan qiziqish ortayotgani va kelajakda yanada rivojlanishini ishonch bilan tasdiqlaydi.

O. A. Burukinaning ta'kidlashicha, rus tilshunosligida olimlar tomonidan "gender" tushunchasi jinsga ko'ra rollar taqsimlanishining madaniy va ijtimoiy stereotiplarining tildagi aksi, gender tadqiqotlari esa, asosan, sotsiolingvistika va psixolingvistikaga taalluqli, u hanuz shakllanish bosqichida (4).

Psixiatr D. D. Enikeevaning yozishicha, psixologik va xulqiy nuqtayi nazardan odamlar erkak va ayol sifatida tug'ilmaydi, erkak va ayol bo'lib shakllanadilar, bu jarayonda ijtimoiy va madaniy omillar muhim rol o'ynaydi (14). Bunga lisoniy omilni ham qo'shamiz.

Rus tilining so'z yasash (suffikslar, qo'shimchalar) imkoniyati nafaqat insonning biologik jinsi, balki ijtimoiy va oilaviy holati, uning oilaviy va ierarxiyadagi o'rni, yoshi va atrofdagilarga bo'lgan shaxsiy munosabati singari ma'nodagi atoqli otlar va leksemalarni yasash imkonini beradi, masalan, Mariya Semenovaning "Oqqush yo'li" romanida:

Высота ("baland", jismoniy parametr, ijtimoiy maqom) ma'nosini anglatuvchi qadimgi slavyan tilidagi erkak ismi, o'g'il ko'rishni orzu qilgan odam, *qizchaga* (kichkina qizcha, ota tomonidan kamsitilib, haqoratomuz munosabat *девчонка*) zo'rg'a qaradi. Qizchaga *Нежелана* (kutilmagan (istalmagan), xohlanmagan) deb ism qo'yib, uni haqorat qildi. O'shanda *boyvuchcha* (*боярыня*, боярning turmush o'rtog'i — бояр boy va taniqli, yuqori maqomga ega kishi) bilan gaplashdilar, buni hech kim eshitmadi, biroq hovlida *kichik xonim* — *меньшица* (boyning hech bir maqomga yoki qonuniy xotinga beriluvchi huquqqa ega bo'lmagan kichkina xotini yoki kanizagi) paydo bo'ldi <... *Меньшицан*ing paydo bo'lishi yosh *боярынан*ing qanotini qayirdi ... < *Долгождан* (uzoq

kutilgan farzand)ni chaqalog'i bilan na qo'yvordi, na o'rmonga haydab yubordi. Uni *поднега* (oil va ijtimoiy hayotda ayolning quyi maqomini ifodalovchi, salbiy ma'no — *негий* so'zi) qildi. *Брошенка* (tashlangan — otlashgan sifat, oila va ijtimoiy hayotda ayolning quyi o'rnini ifodalovchi so'z) (27, 153).

Кременецкие парни (birlikda, *парень* — uylanish yoshiga yetgan yigit) *косились на круглицих девчонок* (birlikda, *девчонка* — oila qurishga yaqin yoshdagi qiz), *круглицие* — на кременецких. Вот так, глядь-поглядь, и недосчитывались в одном из городов *красной девицы* (*девица* — nikoh yoshiga yetgan qiz), а в другом в тот же час прибывало *мужаткой* (*turmushga chiqqan ayol*). И даже князь Радим ничего с этим поделать не мог (27, 155).

Rus tilidagi ayrim hayvon, qush va o'simliklar faqat grammatik ayol rodida (*выдра, нерпа, белка, куница, береза, липа, сосна*) yoki faqat erkak rodida (*конь, зверь, соболев, филин, тетерев, кедр*) bo'ladi. Erkak roddagi ayrim hayvon, qush va o'simliklar nomiga suffiks qo'shish orqali qarama-qarshi jinsni yasash mumkin: *медведь* — *медведица*, *олень* — *оленуха*, *гусь* — *гусыня*. Biroq bu turdagi holatlar ko'p emas; erkak roddagi nomlaridan yasalgan variantlarning ko'pchiligida adabiy me'yorlar doirasidan chiqiladi (*тетерев* — *тетерка*, *бегемот* — *бегемотиха*) yoki qo'shimcha so'z biologik jinsni ko'rsatuvchi indikator (*самец выдры, самка горностая*) talab etilib, juft otga ega bo'ladi: ikki xil so'z bilan ifodalanadi (*жеребец* — *кобыла*, *бык* — *корова*, *баран* — *овца*).

Rus tilidagi o'xshash tushunchani ifodalovchi chelovek va mujchina so'zlarini qiyoslaylik: ingliz tilida bu so'zlar qadimgi ingliz tili davridan saqlanib kelinayotgan **man** so'zi bilan ifodalanadi, inson (odam) (human) insoniyat ma'nosida fransuz tili orqali lotin tilidan kirib kelgan bo'lib, dastlab "erkak jinsiga tegishli" ma'nosini anglatuvchi sifat so'z turkumini ifodalagan: "mid-15c., *humain, humaigne, "human," from Old French humain, umain (adj.) "of or belonging to man" (12c.), from Latin humanus "of man"*. "Ayol" tushunchasi wife+man (humanbeing) birikmasidan hosil bo'lgan (38).

Ushbu tushunchalar qadimgi slavyan, qadimgi rus va zamonaviy rus tilida alohida nomlanishi kuzatiladi: *человек* (umumiy tushuncha) — *мужчина* qadimgi rus tilidagi "мужь" (erkak jinsdagi shaxs) — *женщина* qadimgi rus tilidagi "жена" (ayol jinsdagi shaxs) (35, 399).

Demak, rus tili flektiv til hisoblanib, unda morfema va fleksiya tizimi nafaqat to'g'ridan-to'g'ri grammatik rodni ifodalaydi, balki tilda o'z aksini topgan grammatik rod kategoriyasi tufayli mos ravishda biologik jinsni ham ko'rsatadi: ham jonli, ham jonsiz otlar rod ma'nosiga ega bo'lib, uch guruhga bo'linadi: erkak jinsdagi otlar (*сын, мужчина, гость*), ayol jinsdagi (*мать, девушка, луна*), o'rta jinsdagi rod (*дерево, колесо, дитя*); rus tilidagi fe'lining o'tgan zamon birlik sonida rod kategoriyasi majburiy tarzda qo'llaniladi. Shu bilan birga, biologik jins ham namoyon bo'ladi, masalan, "я ушел" — "я ушла". Ya'ni rus tilida leksemalarning gender markerlanganligi, ya'ni erkak va ayol jinsi

orasidagi semantik ajratish, analitik tillardan farqli o'laroq yaqqol ifodalanadi. Shunday qilib, rus tilidagi gender tafovut to'g'risida so'z borar ekan, nutq qatlamida u yoki bu so'zni (*atama, ifoda, emosional markerlar*) tanlashga ta'sir qiluvchi psixologik va ijtimoiy farqlar, xulqiy omillar sifatida gapirish maqsadga muvofiq.

Analitik tillarda mavjud bo'lmagan, faqatgina rus tiliga xos bo'lgan — alohida rod belgilariga ega bo'lmagan umumiy roddagi otlar mavjud, masalan: *обжора, егоза, сирота, плакса, задиря*. Bunday otlarda jins semasi qisman kontekstda faollashadi. Kontekst yoki ular birikadigan sifatga qarab, femininlik yoki maskulinlik semasiga ega bo'lishlari mumkin. Ot birikkan sifat rodi ham erkak jinsdagi ot (*маленький плакса*), ham ayol jinsdagi ot (*маленькая плакса*) sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Umumiy roddagi so'zlar turli jinsdagi shaxslarni ifodalay olishiga e'tibor qaratgan N. D. Golev umumiy roddagi otlarga nisbatan "agenderlik" atamasini ishlatadi. Umumiy roddagi otlarga nisbatan genderlikni grammatik rod kategoriyasidan ma'lum darajada uzoq, deb hisoblaydi (9).

A. V. Kirilina rus tilini ingliz va nemis tillari bilan qiyoslash asosida yozgan "Til va kommunikatsiyaning gender aspektlari" (*«Гендерные аспекты языка и коммуникации»*) nomli risolasida tilning androsentrligi nasroniylik madaniyatiga ega bo'lgan tillarga xos hodisadir (Injilga ko'ra jamiyatda erkak ayoldan ustun bo'lishi asos sifatida olinadi), deb ta'kidlaydi. Shunday bo'lsa-da, ularning androsentriklik darajasi bir xil emas, turli madaniy muhitda femininlik va maskulinlik stereotiplari bir-biriga mos kelavermaydi. A. V. Kirillaning fikricha, nemis tili bilan solishtirganda rus tilining androsentriklik intensivligi past darajada ifodalangan (19).

Rus tilidagi kasbni ifodalovchi ayol jinsdagi otlar, odatda, androsentrik bo'ladi, ya'ni erkak jinsdagi otlardan yasaladi yoki aksi bo'ladi: *кассир — кассирша, доктор — докторша, поэт — поэтесса, портной — портниха*. Grammatik qoidalar doirasidan tashqari bo'lgan rus tili og'zaki nutqida ayolni feminitivlar — ayol rodidagi so'zlar bilan atash oson. Masalan, *нахалка, толстушка, хохотушка, трусиха, проказница, бездельница, скандалистка, ленивица, рокерша, рэперша*. Biroq kasblarni ifodalovchi feminitivlar mavjudligiga qaramasdan, masalan: *посудомойка, консьержка, сиделка, санитарка, акушерка, официантка, домработница, продащица, уборщица, библиотекаря, секретарша* so'zlar ijtimoiy hayotda obro'si yuqori bo'lmagan kasblarni ifodalaydi. Qiyoslaylik: *санитарка Иванова — врач Иванова; официантка Петрова — менеджер ресторана Петрова*.

M. A. Balasanyan o'z tadqiqotida ayollarning bir qator "obro'li" kasblari grammatik erkak jins shaklida ifodalanishiga e'tibor qaratadi. Masalan, *доктор, врач, профессор* va h.k., ushbu so'zlarning ayol jinsdagi varianti esa og'zaki nutqdagina qo'llanilishi va stilistik jihatdan esa past tabaqa yoki salbiy holatni anglatadi: *докторша, врачиха, профессорша, физичка, химичка, директориса*. Yoki nom genderonim (erkak, ayol) erkak jins shakldagi kasb bilan birikishi yordamida yasaladi: *мужчина-генерал (erkak general) — женщина-генерал (ayol general), мужчина-милиционер (erkak militsioner) — женщина-милиционер (ayol militsioner), мужчина-хирург (erkak jarroh) — женщина-хирург*

(*ayol jarroh*) va h.k. — *генеральша, милиционерша, купчиха* soʻzlari general, militsioner, savdogarning (turmush oʻrtogʻi) ayoli maʼnosini beradi.

V. N. Strausovning taʼkidlashicha, hamma narsa ham oddiy va bir xil emas. Olim samarali soʻz yasovchi modellarining mavjud emasligi yoki insonlarning kasbiga koʻra ayollar sohasini ifodalovchi soʻzlar yasash uchun mahsuldor modellar etishmasligiga eʼtibor qaratadi: **журналист** — **журналистка** meʼyoriy soʻz yasaliş hisoblansa, **окулист** — **окулистка** mazkur meʼyorga toʻgʻri kelmaydi, normativ sifatida qabul qilinmaydi. Bundan tashqari, **водитель, хирург, эколог** yoki **скотовод** soʻzlarining ayol jinsini ifodalovchi juftini yasash mushkul; buning uchun tilning qoʻshimcha leksik resurslariga murojaat qilishga toʻgʻri keladi: *женщина-окулист* (ayol okulist), *женщина-хирург* (ayol jarroh) (29, 50) va sh.k.

Stilistik jihatdan feminitiv nomi kamsitilish va “maqomsizlik”ni ifodalamaydigan qator kasblar ham mavjud. Masalan, *губернантка, артистка, балерина, гимнастка, актриса, певица, танцовщица, виолончелистка, пианистка* singari otlar. Xullas, til ijtimoiy sohada mehnat bozorida gender tafovutni aks ettiradi: obroʻlilik — obroʻsizlik (*актриса* — *уборищица, депутат, сенатор* — *домработница*), anʼanaviylik (*сиделка* — *доктор*), karyeraviy oʻsish imkoniyatiga koʻra (*профессор, fan nomzodi (кандидат наук)* — *laborant (лаборантка)*).

Gender tafovutlar tilning lugʻat tarkibi, semantik maydon va assotsiativ qatorlar bilan ham bogʻliq boʻladi. Ayollar erkaklarga qaraganda oʻz ichki dunyosiga eʼtiborli boʻladilar, ularning lugʻat boyligida his-tuygʻu, emotsiyalarni ifodalovchi soʻzlar koʻp, ayollar koʻproq insonning emotsional-psixologik holatini ifodalovchi feʼllarni qoʻllaydilar. A. V. Kirilina ayollarning assotsiativ maydoni ancha umumiydashgan va “insoniy” (gumanistik) (tabiat, hayvonlar, kundalik turmush tarzi) boʻlsa, erkaklar oʻzlarini sport, ov, kasbiy va harbiy sohalar bilan bogʻlashlarini taʼkidlaydi (20).

N. L. Pushkarevaning fikricha, ayollar erkaklarga nisbatan koʻproq inversiyani qoʻllaydilar, his-hayajon va soʻroq gaplarni ishlatadilar, ayollar uchun toʻliq, ekspressiv gaplar va matnlarni qoʻllash xos. Erkaklar uchun alohida olingan gaplar va matnlar lakonik (qisqa), predmetli va dinamik jihatdan kuchsiz.

Rus tilida gender markerlanganlik, gender semantikasini belgilovchi omillar ham sof lisoniy (xuddi yozuvchi T. Y. Solomatina dialogidagi rod kategoriyasiga koʻra moslashish), ham ekstralingvistik (ijtimoiy, psixologik, diniy va h.k.) boʻlishi mumkin. Shu tariqa rus tiliga xos boʻlgan tilga gender aspektlarning taʼsirini nafaqat lisoniy oʻziga xoslik bilan birga oʻrganish, balki maqom, ijtimoiy qatlam, maʼlumot darajasi, kontekst va jamiyatdagi vaziyat kabilar bilan ham oʻrganish lozim.

Nutqiy yoki shaxs sifatidagi xatti-harakatlar asosida madaniy stereotiplar koʻrinishida namoyon boʻluvchi gender leksikasining oʻziga xosligini qiyoslashda oʻrganish maqsadga muvofiq. Flektiv boʻlgan rus tili gender leksikasining semantik xususiyatlarini analitik boʻlgan ingliz tili va oʻzbek tili singari tillar gender leksikasi bilan qiyoslab oʻrganish uning universal xususiyatlarini, xususan, madaniy oʻziga xosligini aniqlash imkonini beradi.

O'zbek tilidagi gender leksikaning semantik xususiyatlari ham ichki lisoniy (analitikligi, agglyutinativiligi), ham tashqi ekstralingvistik (tarixiy omil, diniy dominant) omillardan kelib chiqadi. Ko'plab musulmon madaniyatiga ega tillarda bo'lgani singari ayollarning ijtimoiy roli har doim erkaklarnikidan pastroq bo'lgan; diniy qonunlarda ayollarning huquq va majburiyatlari qat'iy chegaralagan. Hozirgi kunda o'zbek jamiyatidagi gender tafovutlar nafaqat tilshunoslikdagi dolzarb tendensiyalardan, balki ijtimoiy, psixologik, siyosiy, tijorat qatlamlarining ham dolzarb masalasi hisoblanadi. Masalan, elektron ommaviy axborot vositalaridan bo'lgan Kommersant.uz onlayn gazetasida berilgan quyidagi lavhani aytish mumkin: "Gender kreditlash: biznesda ayollar haqidagi stereotiplarni o'zgartirib bo'ladimi?" 15–16 avgustda Toshkentda "Kichik biznesni moliyalashtirishning gender masalalari" mavzuida seminar bo'lib o'tdi<...>

Afsuski, aksariyat erkaklar qotib qolgan barcha fikrlarga to'liq qo'shilishdi, ayollar esa aksincha qarshilik bildirishdi. Ayollarning har biri ham so'z, ham harakat erkinligiga ega bo'lishlari, nafaqat uy bekasi, balki jamiyatda o'z o'rinlariga ega bo'lishlarini aytishdi.

"Biz faqat uy ishlari va bola tarbiyasi bilan shug'ullanishni xohlamaymiz! Biz ishlashni, o'qishni va o'z qobiliyatlarimizni yuzaga chiqarishni xohlaymiz", deyishdi seminarida ishtirok etgan ayollar (43).

Fikr-mulohazalar o'zbek jamiyatiga xos bo'lgan ayol va erkak roli bilan bog'liq gender stereotiplari hamon hayot tarzi darajasida saqlanib qolayotgani, kichik va o'rta biznes, ilm-fan, siyosat singari sohalarida ayollar oqsayotganligidan dalolat beradi.

Yasmin Xilluvalning *"Women's role in politics in the medieval Muslim world"* (*"O'rta asr musulmon dunyosi siyosatida ayolning o'rni"*) (39)) asarida abbosiylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, qoraxoniylar hukmronligi davrida siyosiy nikohlar va ayolning o'rni, roli batafsil o'rganilgan bo'lib, unda tarixda nom qoldirgan ayollar, eng avvalo, boshqalardan ajralib turuvchi shaxs ekanligi, jamiyat yuqori qatlamiga tegishliligi tufayli siyosiy intrigalarga daxldorligi, natijada, muayyan qoidalardan istisno bo'lganligi ta'kidlanadi. O'sha davrda ayollarning dunyoni anglashi, odatda, belgilangan (ilgari o'zbek xonadonlarida ichkari deb ataluvchi uy bo'lgan) uyning ayollar yashaydigan qismidan tashqariga chiqmagan. Masalan, farzand tug'ilgandan keyin uning onasini farzand ismi bilan aytib chaqirishgan, masalan, **Sayidni onasi**.

V. V. Dasheevaning fikricha, bunday hodisa ko'plab Markaziy Osiyo, Oltoy, Xitoy madaniyatiga xos. Diniy an'analar, irimchilik, senzuraviy va ijtimoiy taqiqlar, kasallikdan qo'rqish va g'ayritabiiy kuchlarning ta'siri sabab kishi ismlarining muqaddas ma'nosini saqlab qolishga intilish singari ekstralingvistik omillarni belgilab beruvchi qadimiy lisoniy tabu ayrim so'zlarni aytish taqiqi bilan bog'lanadi (12).

O'zbek tilida erkaklar ismlaridan qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ayollar ismlari va turdosh otlarning ko'p emasligini aytish mumkin: *Mahmud — Mahmuda, Fayz — Fayza, Zohid — Zohida, Ma'mur — Ma'mura, shoir — shoir, muallim — muallima*. O. N. Kalinina o'z ilmiy tadqiqotida ushbu masalaga alohida e'tibor qaratadi (27, 72).

So'z yasovchi vositalar yordamida hosil bo'lgan juft nomlanishlarning kamsonli ekanligi bunday juftlilik so'z yasovchi

morfemalar soni va grammatik rod kategoriyasiga ega bo'lmagan analitik o'zbek tiliga xos emasligi bilan tushuntiriladi. Shuning uchun o'zbek tilida shaxsning jinsiy belgisiga ko'ra farqlash grammatik rod kategoriyasi doirasidan tashqarida amalga oshiriladi. Masalan, o'zbek tilida biologik jinsni fauna misolida nomlash usullari to'g'risida so'z borar ekan, flektiv bo'lgan rus tilidan farqli ravishda ingliz tili kabi o'zbek tilida juft nomlanishlar kam uchraydi: masalan, *tuya* (erkak va urg'ochisi bir xil ataladi), *ot* — *baytal*, *sovliq qo'y* — *qo'chqor*. Bunday juftlik asosidagi oppozitsiyalar chorvadorlar uchun xos bo'lib, dastlab turmush tarzi chorva podalarini boqish bilan bog'liq bo'lgan, keyinchalik muqim hayot tarziga xonakilashtirilgan chorvachilik bilan o'troq hayotga ko'nikkan ko'chmanchi turkiy qabilalar ta'sirida o'zbek tiliga kirib kelgan. O'zbek tilida yovvoyi hayvonlarning ayol jinsini ifodalash uchun erkak jinsidagi hayvon nomiga **urg'ochi** leksemasi ishlatiladi: *urg'ochi yo'lbars*, *urg'ochi ayiq*, *urg'ochi bo'ri*.

O'zbek tilida erkak va ayol jinsini ifodalash uchun mustaqil juft leksemalar mavjud: erkak va ayol; er va xotin. Biroq o'g'il bola va qiz bola ma'noli leksemalar "*bola*", "*o'g'il*" va "*qiz*" ma'noli identifikatorli qo'shimcha leksemalar yordamida yasaladi.

Tabiatiga ko'ra, o'zbek tili — androsentrik. Ingliz tili kabi unda kasb ma'noli feminitiv leksemalar nisbatan kam. Masalan, *o'qituvchi*, *doktor*, *vrach*, *g'aznachi*, *talaba*, *mansabdor*, *sotuvchi* kabi leksemalar ham erkak, ham ayol jinsga bir xil darajada qo'llaniladi. Bu tarixiy fakt bilan bog'lanadi, O'rta Osiyo hududida XX asrning 20-yillariga kelib, ayol jinsi vakillari sotsializatsiyasi sodir bo'la boshladi. Bu til nuqtayi nazaridan kichik davr hisoblanganligi bois jinsiy tegishlilikka ko'ra kasbiy nomlanishda differentsiatsiya variantlari paydo bo'lishi uchun qisqa davr sanaladi. Bunday misol mavjud, biroq ularning soni kamchilikni tashkil etadi: *muallim* — *muallima*.

O'zbek tilida antroposentriklikning yaqqol ifodalanishi, uning tarkibida ayol rodi ma'noli genderonimlarning kam sonli ekanligi sababli o'zbek tilida gender nutqining o'ziga xosligini belgilab beruvchi omillar til dinamikasida yaqqol namoyon bo'ladi.

Zamonaviy tilshunoslikning tillarni qiyosiy tahliliga alohida e'tibor qaratishga yo'naltirilgan tendensiyasi tabiiy hodisadir, chunki har bir millatning madaniy o'ziga xosligi, uning milliy mentaliteti o'sha millatning tilida o'zicha o'z aksini topadi.

Tilda gender tafovutlarning namoyon bo'lish xususiyatlariga ko'ra dunyodagi barcha tillarni quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

a) turli jins vakillari nutqidagi mavjud farqni gapiruvchilarni o'zlariga ham sezilmaydigan, majburiy bo'lmagan xarakterdagi farq mavjud bo'lgan va o'sha farqlarni aniqlash uchun batafsil tahlil talab qilinadigan tillar. Bularga ingliz va o'zbek tillari kabi analitik tillarni kiritish mumkin;

b) gapiruvchining jinsi eksplisit ravishda aniq ifodalanagan, bundan tashqari, jinsning ifodalanishi majburiy bo'lgan tillar. Bu guruhga "завершил работу" — "завершила работу" singari misollar til sohibining jinsini avtomatik ravishda aniqlashtiruvchi rus tili singari flektiv tillar kiradi.

Erkak va ayollar nutqida genderning lisoniy reprezentatsiyasi lingvistik tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, erkak va ayol nutqidagi farq tilning turli qatlamlari: fonetika va fonologiya, leksika va grammatika, sintaksis va stilistikada mavjud bo'ladi (11, 36). Ushbu tafovutlar ijtimoiy va madaniy mexanizmlar hamda individ tafakkurini belgilab beruvchi erkak va ayol mohiyati to'g'risidagi lisoniy muhitga xos tushunchalar bilan aniqlanadi.

A. V. Kazakova ta'kidlaganidek, erkak va ayol nutqidagi gender farqlar qotib qolgan shaklda emas, balki muloqotning o'ziga xos xususiyati sifatida ta'riflanadi, ya'ni muloqot holati, hamsuhbatlar orasidagi munosabat darajasi bilan belgilanadi va, shuningdek, muloqot qatnashchilarining nutqiy xulq-atvoriga sezilarli ta'sir qiluvchi muloqotga kirishuvchi kommunikantlarning (jinsi, yoshi, ijtimoiy maqomi, kasb-kori, millati, ma'lumoti, diniy qarashlari) shaxsiy parametrlari bilan bog'liqdir (15).

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi "*man — woman*", "*мужчина — женщина*", "*erkak — ayol*", "*boy — girl*", "*мальчик — девочка*", "*bola — qiz*" tushunchalari semantik jihatdan inson biologik jinsini ifodalovchi ko'p asrlik so'zlardir. Mazkur so'zlar ingliz va o'zbek tillarida genderonim hisoblanadi, ya'ni ularda semantik nuqtayi nazardan biologik jins mujassam va jinsni aniqlash uchun kontekst talab etilmaydi. Bu so'zlardan tashqari, har bir tilning lug'at fondida qadim davrlardan tilning lug'at tarkibida mustahkam o'rin egallab kelgan hamda jins ma'nosini o'zida aks ettiruvchi qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi so'zlar mavjud. O. N. Trubachev (30), N. A. Butinov (5), V. G. Gak (7), A. Y. Kazansev (16), E. V. Fedorchuk (33), O. V. Bliznyuk (3). Jamoat tafakkurining muhim atributlari bo'lgan erkaklik va ayollik inson tafakkurida semantik qatlamda o'z aksini topgan. Ular universal, ya'ni har qanday madaniyatda konsept sifatida namoyon bo'lib, o'sha jamiyatga xos bo'lgan hamda konnotatsiyalarda namoyon bo'luvchi ma'lum o'ziga xoslikni o'z ichiga oladi. Y. D. Apresyanning fikriga ko'ra "o'ziga xos bo'lmagan konseptlarning o'ziga xos konnotatsiyalari tilda muhrlangan dunyoning sodda manzarasi to'g'risidagi bilim manbai bo'lib, lisoniy va kengroq madaniy tafakkurning "stereotiplarini" ochib berishga xizmat qiladi" (1).

Shunday qilib, har qanday millat tilida tarixiy, madaniy va etimologik jihatdan eng qadimgi lug'at qatlamlariga taalluqli so'zlar guruhi alohida qiziqish uyg'otadi, chunki qarindoshlik munosabatlari o'rnatilishi jamiyatning shakllanishi va taraqqiyoti bilan parallel ravishda shakllangan, va unda biologik jinsning asl ma'nosi muhrlanadi va konkretlashtiriladi. Ayrim tadqiqotchilar odamlar orasidagi qarindoshlik munosabatlarini ifodalashda xizmat qiladigan bunday leksemalarni qarindoshlik atamaları deb ataydilar (22).

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi ayol yoki erkak jinsiga mansublik semantik ma'nosiga ega so'zlarning shakllanish mexanizmlari turlichadir. Masalan, quyidagi shaklda ingliz, rus va o'zbek tillaridagi qarindoshlikni ifodalovchi asosiy atamalarni umumlashtirishga urindik.

Ingliz tili		Rus tili		O'zbek tili	
muj.r.	jen.r.	муж.р.	жен.р.	muj.r.	jen.r.
Father	Mother	Отец	Мать	Ota	Ona
Husband	Wife	Муж	Жена	er	Xotin
Son	Daughter	Сын	Дочь	O'g'il bola	Qiz bola
Brother	Sister	Брат	Сестра	aka/uka	opa/singil
Uncle	Aunt	Дядя	Тетя	amaki/tog'a	amma/xola
Grandfather	Grandmother	дедушка, дед	бабушка, баба	bobo	Buvi
Grandson	granddaughter	Внук	Внучка	nevara	Nabira
Nephew	Niece	Племянник	Племянница	jijan	Jijan
Cousinbrother	Cousinesister	кузен/двоюродный брат	кузина/двоюродная сестра	Amakini ng o'g'li	Amakini ng qizi
son-in-law	daughter-in-law	Зять	Сноха	Kuyov	Kelin
Stepfather	Stepmother	Отчим	Мачеха	O'gay ota	O'gay ona
father-in-law	mother-in-law	Свекр	Свекровь	Qaynota	Qaynona
father-in-law	mother-in-law	Тесть	Теща	Qaynota	Qaynona
Widower	Widow	Вдовец	Вдова	Beva (kishi)	Beva (kishi)

1-rasm. Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi "qarindoshlik aloqalari" semantik guruhi gender reprezentatsiyasi

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, qon-qarindoshlik munosabatlari qanchalik yaqin bo'lsa, uni ifodalovchi so'zlar shunchalik o'ziga xos bo'ladi. Shunday qilib, "father — mother, omeц — мать, ota-ona" va "husband — wife, муж — жена, er — xotin", "son — daughter, сын — дочь, o'g'il bola — qiz bola", "brother — sister, брат — сестра, aka/uka — opa/singil", "uncle — aunt, дядя — тетя, amaki/tog'a — amaki/tog'a — amma/xola", "grandfather — grandmother, дедушка, дед — бабушка, bobo — buvi" qatorida har bir so'z o'ziga xos xususiyatga ega va "ayol" jinsiga tegishli so'zlar "erkak" jinsiga tegishli bo'lgan so'zlardan yasalmaganligini ko'rish mumkin. Biroq ayrim atamalarni shakllantirish mexanizmlari fikrlashning milliy o'ziga xosligi va dunyo manzarasini anglash darajasi bilan farqlanadi; masalan, o'zbek tilidagi "bola" kognitiv tushunchasi farzandning (o'g'il, qiz) jinsini ifodalash uchun "o'g'il" va "qiz" biologik jins identifikatorlarini qo'shib analitik yo'l bilan konkretlashtiriladi. Bundan tashqari, ingliz va rus tillarida mavjud bo'lmagan o'zbek tilidagi "aka — singil" misolida qarindoshlikni ifodalashda o'ziga xoslik va ierarxiya farqlanadi. Demak, o'zbek tilidagi "aka — singil"da nafaqat biologik jins semasi mavjud, balki "hurmat" (aka/uka — opa/singil) namoyon bo'lishi uchun xizmat qiluvchi yosh semasi ham mavjud; "amma/xola — amaki/tog'a" so'zlarida ota yoki ona tomonidan (amaki/tog'a — amma/xola) qarindoshlikni ifodalovchi genetik ma'no semasi ham mavjud.

Qarindoshlikning ikkinchi qatorini ifodalovchi atamalar nisbatan kamroq o'ziga xosligi bilan xarakterlanadi. Demak, rus tilidagi Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan “кузен” so'zi tufayli va rus tilida ayol rodini eksplitsit tarzda namoyon bo'lishi qonuni sabab mazkur tilda ayollik semantikasiga ega bo'lgan “кузина” juft oti paydo bo'lgan. Shuningdek, qarindoshlikni ifodalash uchun “брат” va “сестра” so'zlarini aniqlashtirish uchun двоюродный (-ая) so'zlari qo'llaniladi. Ingliz tilidagi “cousin” so'zi genderonim emas hamda u “brother” yoki “sister” identifikatorlari talab etiladi. O'zbek tilida ikkinchi qator qarindoshlik tushunchasi ierarxik planda yetarlicha kuchli emasligi sabab “o'g'il” va “qiz” so'zlariga tegishlilik ma'nosini ifodalovchi aniqlovchi identifikatorlar qo'shish talab etiladi: amakining o'g'li/qizi, tog'aning o'g'li/qizi, ammaning o'g'li/qizi, xolaning o'g'li/qizi. Shuningdek, ingliz tilida “niece — nephew” genderonimlar jufti bo'lsa, rus tilidagi “племянник — племянница” jufti rus tilining so'z yasash imkoniyatlari sabab paydo bo'lgan. O'zbek tilidagi “jiyan” esa ham ayol, ham erkak jinsiga tegishli bo'lishi mumkin hamda biologik jinsni ko'rsatish uchun qo'shimcha indikator talab qiladi. Biroq o'zbek tilidagi “nevara — nabira” genderonimlar jufti to'g'ridan-to'g'ri qon-qarindoshlik qatorini davom ettirishni ko'rsatadi. Shunday qilib, ingliz, rus va o'zbek tillaridagi qon-qarindoshlikka oid atamalarning semantik ma'nosi erkak va ayol ma'nosi farqlanadi va konkretlashgan.

Ijtimoiy kontekst (nikoh qurish) sabab paydo bo'lgan qon-qarindoshlikka asoslanmagan qarindoshlik ingliz tilida qon-qarindoshlik genderonimiga “in-law” identifikatorini qo'shish orqali yasaladi; shunga o'xshash sxema analitik bo'lgan o'zbek tilida ham kuzatiladi — qon-qarindoshlik genderonimiga “o'gay” va “qayn” identifikatorlarini qo'shish orqali namoyon bo'ladi. Ingliz tilidan farqli ravishda o'zbek tilida “kuyov — kelin” genderonimlar jufti ham kuzatiladi.

Flektiv bo'lgan rus tilida esa ijtimoiy (qonga asoslanmagan) qarindoshlik atamaları rus tilining bag'oyat boy bo'lgan so'z yasash mexanizmlari orqali ancha rang-barangdir: “зять — сноха”, “отчим — мачеха”, “свекр — свекровь”, “тесть — теуца”.

Ryad “widower — widow, вдовец — вдова, beva (kishi) — beva (ayol)” qatori “Qarindoshlik aloqalari” semantik guruhi jadvaliga kiritilishiga ularning mazkur guruhga ijtimoiy (qonga asoslanmagan) qatlamda namoyon bo'lishi qisman bo'lsa-da aloqadorligi sababdir. Tadqiqot doirasida mazkur so'zlar qatori ularning erkak/ayol jinsiga tegishlilik semantik xususiyatlari tufayli qiziqdir.

Ingliz tilidagi ayol genderonimlarning ko'pchiligi erkak atamalaridan yasalgan, “widower” atamasi esa aksincha “widow” ayol genderonimidan yasalganligi e'tiborni o'ziga tortadi:

widower (n.)

“man who has lost his wife by death,” late 14c., extended from widow (n.). (мужчина, который утратил жену вследствие ее смерти, поздний 14в., образовано от “вдова”).

Rus tilidagi “вдова — вдовец” jufti esa qisqa sifat so'z turkumiga tegishli bo'lgan so'zning erkak va ayol rodidagi shaklda otlashganligidan hosil bo'lgan: вдова va вдов so'zlaridan keyinchalik вдовый, вдовье

singari to'liq sifatlar, hamda *вдова* — *вдовец* singari otlar paydo bo'lgan (34, 49).

O'zbek tilidagi “beva” tushunchasi ham erkak, ham ayol kishiga nisbatan qo'llanilishi mumkin, zarurat bo'lganda biologik jinsni konkretlashtirish uchun ayol/erkak ma'noli identifikator ishlatiladi.

Shuningdek, rus tilidagi qarindoshlikni ifodalovchi atamalarda gender tengsizlikning bunday omilini ta'kidlash lozimki, rus tilidagi qadimgi slavyanlarda dastlab ayol jinsiga tegishli bo'lgan yoshi katta ayolni anglatgan rus tilidagi “баба” oti vaqt o'tishi bilan keyinchalik negativ konnotatsiyaga uchrab yoki turmushga chiqqan ayolning past ijtimoiy maqomi va og'ir jismoniy mehnatini (*крепостная баба*, *деревенская баба*) anglatuvchi ma'noda yoki kamsitish (*глухая баба*, *бабий язык* — *что помело, встретить бабу с пустым ведром* — *день попусту пройдет*, va h.k.) ma'nosida qo'llanilgan. Mazkur so'zning erkak jufti bo'lgan “дед” so'zi esa yoshi ulug'lik, erkaklik, hurmat singari asl ma'nolarini saqlab qolgan (“*Мой дед воевал и пропал без вести в Великую Отечественную*” — no “*Моя бабушка (баба емас) воевала и пропала без вести в Великую Отечественную*”, *Спасибо деду и бабушке за Победу*, va h.k.).

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi “Qarindoshlik aloqalari” semantik guruhi gender reprezentatsiyasida prinsipial farqlar mavjud emas. Ona tomondan yoki ota tomondan tog'a yoki amaki/xola yoki amma singari nisbatan kengroq konnotatsiyalar qatorini namoyon etuvchi bir qator birliklarning semantik farqi mazkur tillardan foydalanuvchi odamlar tushuncha apparatida aqliy va madaniy tafovut sifatida aks etadi.

Shaxsning biologik jinsini ifodalovchi eng qadimgi leksik qatlam bo'lgan qon-qarindoshlik atamaları doirasidan tashqari, gender leksikaning semantik xususiyatlari uning gender mavqei bilan aniqlanadi, ya'ni inson yashash tarzi va uning ijtimoiy realizatsiyasi qanchalik konkret jamiyat gender standartlariga mos kelishiga bog'liq bo'ladi. Erkaklar va ayollarning jamiyatdagi mavqei ijtimoiy maqomlarning eng asosiylaridan bo'lib, ayrim jamoalarda, masalan Saudiya Arabistonida, ular tug'ma (nasldan-naslga o'tuvchi) hisoblanadi. Maqomning o'zgarishi, odatda, gender strukturalari doirasidan tashqariga chiqishni emas, balki bir mavqeidan ikkinchisiga o'zgarishni nazarda tutadi, va buning in'ikosini gender leksika semantikasida kuzatamiz.

Qarindoshlik va kasbiy plandagi atamalarda genderga yo'naltirilgan tushunchalar semantik realizatsiyasidan tashqari, ayollik/erkaklik to'g'risidagi tasavvur ham og'zaki ham badiiy diskursda namoyon bo'ladi.

Og'zaki diskursda femininlik/maskulinlik kontekst yoki vaziyatga hamda milliy madaniyat va mentalitetga ko'ra konkretlashtiriladi va u yoki bu tarzda yorqin ifodalanishi mumkin (32; 37). O'zbek tilidagi ayol nutqi rus yoki ingliz tilidagi ayol nutqi bilan bir xil emas; vaziyatga qarab, erkak, ayniqsa, unchalik tanish bo'lmagan erkak kishi bor jamiyatda yoki kasb yuzasidan tanish bo'lgan erkak bor joyda ayollar ehtiyotkorlik, qisqa va hurmat bilan gapiradi. Masalan, Kommersant.uz elektron gazetasida “Leader House” xususiy o'quv markazi rahbar Iroda Rasulova bilan intervyuni ko'rish mumkin:

— *Iroda, nega aynan bolalar uchun o‘quv markazi? Shu paytgacha binoyidek tijorat yuritib kelayotgan ekansiz. Bunday keskin o‘zgarish qilishga nima sabab bo‘ldi?*

— *Aslida tijoratdan ketish niyat yo‘q edi. Bir kuni kichik qizimni kimyo fani bo‘yicha o‘quv markaziga olib bordim. Qizim darsga kirib ketdi. Uni kutib o‘tirib, o‘quv markazi rahbari Aziza opa bilan tanishib qoldim. Uzoq suhbatlashdik. Shunda ular: “Nega siz ham shunday o‘quv markazi ochmaysiz?” — deb so‘rab qoldilar (42).*

Tanish (qarindosh) erkaklar yoki faqat ayollar (va ularning bolalari) bo‘lgan jamoatda ularning nutqi erkin, davomli, emotsional bo‘yoqdor, undov so‘zlar va fativlarga boy bo‘ladi. Ular bunday nutqiy xatti-harakatlar bilan begona tilda ham suhbat olib borishlari mumkin. Masalan, rejissyor Zulfiqor Musoqovning o‘zga sayyoralikning o‘zbek qishlog‘idagi sarguzashtlariga bag‘ishlangan “Abdullajon yoki Stiven Spilbergga bag‘ishlov” nomli fantastik komediyasida film qahramonlari ham o‘zbek, ham rus tilida gapiradilar. Aktrisa To‘ti Yusupova tomonidan ijro etilgan qahramon Xolida opa dialoglarning birida turmush o‘rtog‘i bilan munosabatlarni oydinlashtirayotganda har bir iborani baland ovozda “Vay dooooood, vay dod”, “Vay dooooood, vay dod!” deb o‘zbek tilida gapirsa, uning yonida turgan bola bilan muloqotda bolaga ovoz ohangini pastlatib turli qo‘shimchalar bilan buzuq rus tilida gapirganda, o‘zbek tili strukturasini rus tili nutqiga ko‘chirib gapiradi: “Эээээ, мальчик! Иди сюда! Мальчик? Где твой мама, а? Маруся где? Уууууу! Уууу! Новосибирск, да? Барнаул, да? Барнаулами?????”

Misol sifatida Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” pyesasidagi qaynona va kelinlar o‘rtasidagi dialogni ko‘rsatish mumkin:

N i g o r a. Ox, bu to‘y!.. o‘n kundan beri zaryadka qilolmayapman. Belim og‘riyapti, semirayotganga o‘xshayapman... (egilib, obruchni aylantiradi, bu paytda uning qaynonasi Farmonbibi qo‘lida qumg‘on bilan chiqib keladi. Kelinini ko‘rib qumg‘oni qo‘lidan tushib ketadi.)

F a r m o n. Bu nima bu? Jinmisan, shaytonmisan? Ey, to‘xta! To‘xta deyman!

N i g o r a. Hozir, hozir, oyijon. Yana besh minut, formaga tushvolay.

F a r m o n (jahl bilan yerga o‘tirib). Vaydod! Uyimda ajina bor. Farishtalar uyimdan qochib ketibdi. Bu qanday balo! (44)

Shunday qilib, og‘zaki va badiiy diskurs umuminsoniy va milliy madaniyat qismi bo‘lib, o‘zida jamiyatning mavjud modeli to‘g‘risidagi tasavvurni, xususan, uning gender strukturasini qamrab oladi.

Matnning o‘zgarmasligi, badiiy diskursda dinamikligi sababli oilaviy holat, ijtimoiy maqom singari belgilarga ega bo‘lib, jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy jarayonlar umuman olganda tilda, xususan, badiiy diskursda o‘z aksini topadi. Masalan, zamonaviy jamiyatda nikoh va ajralishga bo‘lgan munosabat o‘zgargan. Ingliz tilida va rus tilida gapiruvchi jamiyatlarda mazkur ijtimoiy hodisalar unchalik ham salbiy shaklda baholanilmayapti. Gender stereotipida qayd etilgan salbiy baho neytralizasiya jarayoni sodir bo‘lmoqda (15). O‘zbek tilida so‘zlashuvchi jamiyatda esa nikoh, oila va h.k. instituti singari an‘anaviy qadriyatlarni saqlab qolish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Gender tilshunosligi rivojlanishining zamonaviy bosqichida ingliz, rus va o'zbek singari turli tizimli tillar materiali asosida gender reprezentatsiyalarning qiyosiy tadqiqi inson hayot tarzining barcha sohalari, xususan, oila, inson avlodini davom etishi, erkak va ayollar huquqlarining tengligi, ayollarning huquq va majburiyatlari, ayollarning ish bilan bandligi va jamiyat hayotining boshqa muhim sohalarida biologik jinsning milliy-madaniy o'ziga xosligi realizatsiyasini ochib berish imkoniyatini beradi.

Gender o'xshashlik va farqlar madaniy an'analarda ham, ularni turli xalqlarning til va nutqida ifodalanishi uzoq tarixga ega bo'lib, u yoki bu tarixiy davr ijtimoiy xarakteristikasida o'z aksini topadi. Umuman, har bir xalqdagi erkak va ayol o'ziga xosligidagi tafovutlar qiyosiy tadqiq qilishda yaqqol ko'rinib turadigan kundalik va qarindoshlik odatlar, ijtimoiy-madaniy an'analar va ramzlardan boshlanadi. Nutq odatda turli tillarda ayni bir xil gender tushunchalarni ifodalasa-da, ushbu tushunchalar har bir lingvomadaniy va ichki milliy jamoada qiyoslanilayotgan barcha tillarning gender xususiyatlari shakllanishi va ochib berilishi uchun o'ziga xos kod hisoblangan alohida leksik marker (belgi)lar yoki identifikatorlar bilan aniqlanadi. Turli tizimli tillardagi gender leksikaning qiyosiy tadqiqi o'xshash narsalardagi farq va har xil narsalardagi birxillikni ochib berish imkonini beradi.

Xulosa

Xalqaro xamkorlik va tillararo aloqalarning kengayishi, integratsiya va globallashtirish jarayonlarining intensivligi kasbiy faoliyatda muloqot bilan birga kuzatiladiki, bu ijtimoiy voqelikni aks ettiruvchi va kodlovchi mexanizm bo'lgani kabi tildagi gender reprezentatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish masalasini dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Gender leksikaning sotsiolingvistik, lingvistik, madaniy-tarixiy qarashlar prizmasi orqali amalga oshirilgan qiyosiy tahlili ingliz, rus va o'zbek singari turli tizimli tillar orasidagi umumiy aloqa nuqtalarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu aloqa nuqtalari, eng avvalo, ingliz, rus va o'zbek tillarida atrofdagi olamni nominatsiyalash va qadimgi inson ongida so'zlarni jinsiy begilariga ko'ra farqlash jarayonlarida shakllangan gender leksikaning eng qadimgi qatlamining mavjudligi bilan aniqlanadi.

Bu kabi leksik qatlamlarga, birinchi navbatda, "Qarindoshlik aloqalari" semantik guruhi kiradi. Qiyosiy tahlildan ko'rinib turibdiki, leksemalarning hosil bo'lish usullaridagi farqlarga qaramasdan, ushbu tillarning har birida ayol va erkak jinsi ma'nolariga ega noyob leksemalar mavjud: analitik bo'lgan ingliz va o'zbek tillarida faqat ayol yoki faqat erkak ma'nosiga ega bo'lgan so'zlar — genderonimlar mavjud. Qon-qarindoshlik aloqalari qanchalik yaqin bo'lsa, uni ifodalovchi so'z shunchalik o'ziga xosdir.

Rus tilidan farqli ravishda, ingliz va o'zbek tillarida grammatik rod kategoriyasi yashirin kategoriya hisoblanadi. Kontekstdan tashqari yoki gender markerlarga ega bo'lmagan ko'plab otlar avvaldan erkak roddagi otlardir yoki ular neytral genderli ot sifatida qabul qilinadi hamda ularning boshqa so'z turkumlari bilan birikishi bilangina yoki kontekst yordamida gender konnotatsiyasini konkretlashtirish mumkin bo'ladi.

Xushmuomalalik kategoriyasini ifodalashning semantik-sintaktik vositalarini taqqoslash hamda ingliz, rus va o'zbek tillaridagi ayollar nutqini badiiy asarlardagi dialoglar materiali asosida qiyoslash ingliz va rus tillarida erkak va ayol nutqiy xatti-harakatlaridagi tafovutni sezilarli darajada kamayganligini hamda o'zbek tilida erkak va ayol nutqida sezilarli farq mavjud degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Shunday qilib, ingliz, rus va o'zbek tillaridagi gender belgilar, gender reprezentatsiyalarni o'rganish, tahlil qilish va taqqoslash fonetika, morfologiya, leksika va sintaksis doirasida zamonaviy ingliz, rus va o'zbek tillarida gapiruvchi jamiyatlardagi erkak va ayollarning rol funksiyalarini tasavvur qilishda lisoniy va nutqiy o'zgarishlarni o'rganish imkonini beradi.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi gender markerli, gender semantikasi aniqlovchi omillar sof lisoniy va ekstralingvistik (ijtimoiy, psixologik, diniy va h.k.) bo'lishi mumkin. Ular nafaqat leksik qatlamda, balki orfoepik, fonetik, morfologik, sintaktik qatlamlarda ham bo'lishi mumkin. Binobarin, tilga gender aspektlarning ta'sirini o'rganish nafaqat ingliz, rus va o'zbek tillariga xos bo'lgan o'ziga xoslik bilan birga olib borilishi, balki mavqe, ijtimoiy daraja, ma'lumot darajasi, kontekst va jamiyatdagi vaziyatni ham o'rganish lozim.

Ingliz va rus tillaridan farqli ravishda, o'zbek tilidagi bolalar va ayollar nutqida yosh va qarindoshlik ierarxiyasi qoidalariga to'liq rioya qilinadi. O'zbek ayollarning o'z emotsional holatlarini namoyon etishda nisbatan ko'p ishlatiladigan so'z turkumi undov so'zlardir: bir dona bo'lsa ham undov so'zning borligi butun ifodaga emotsionallik olib kirsas, erkaklar nutqida esa ko'proq imperativlardan foydalanish kuzatiladi. O'zbek tilida ham erkak, ham ayollar nutqida gap oxirida emotsional yuklamani qo'llash tez-tez uchraydi.

Emotsional sohaning gender differentsiatsiya sifat darajasi — ma'lum emotsiyalar realizatsiyasi, ularni obyektivatsiyasi uchun xos bo'lgan verbal vositalarni qo'llashda namoyon bo'ladi. Uchta til doirasidagi nutq namunalari asosida olib borilgan tahlilimiz sovuqqonlik, ehtiyotkorlik, rostgo'ylik, tezkorlik va hattoki qo'pollik faqat erkaklar nutqiga xos bo'lgan sifatlar emasligi, va aksincha muloyimlik, yumshoqlik, emotsionallik faqat ayollar nutqiga xos emasligini: ular muloqot vaziyati, suhbatda ishtirok etuvchilarning ijtimoiy mavqei va yosh, psixologik, ma'lumoti, kasbiy-madaniy va qarindoshlik aloqalariga ko'ra erkaklar nutqiga ham xos bo'lishi mumkinligini yaqqol ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Апресян Ю.Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики. — М.: Просвещение, 1966. — 345 с.
2. Багана Ж, Хапилина Е.В. Глобальный английский язык. Научные ведомости. Серия гуманитарные науки. — 2016, № 21 (242), Выпуск 31. — С.31–35.
3. Близнюк О.В. Сопоставительный семантический анализ терминов родства в различных лингвокультурах: Автореф. дисс. на соиск. учен. степ. кан. филол. наук. — Тверь: 2006. — 24 с.

4. Бурукина О.А. Феминность русского языка и культуры // Язык. Сознание. Коммуникация. Вып. 14. — М.: 2000. — С. 84–88.
5. Бутинов Х.А. О специфике производственных отношений общинно-родовой формации // Советская Этнография. — М.: Наука, 1977, № 3. — С.65–75.
6. Вандышева А.В. Гендерно ориентированная лексика в языковой картине мира (на материале английского, русского и немецкого языков): Автореф. дисс. на соиск. учен. степ. док. филол.наук. — Ростов-на-Дону: 2007. — 20–25 с.
7. Гак В.Г. К диалектике семантических отношений в языке // Принципы и методы семантических исследований. — М.: Наука, 1976. — С.73–92.
8. Гвоздева А.А. Языковая картина мира: лингвокультурологические и тендерные особенности (на материале художественных произведений русскоязычных и англоязычных авторов): Дис. канд. филол. наук. — Тамбов, 2003. — 151 с.
9. Голев Н.Д. «Общий род» и гендерная семантика русских имен существительных: бигендерность или агендерность? // Вестник Томского государственного университета. Филология. — 2013, № 6 (26). — С.14–27.
10. Горошко Е. И. Гендерная проблематика в языкознании // Введение в гендерные исследования. — Харьков: ХЦГИ. СПб.: Алетейя, 2001. — Часть 1. — С. 508–542.
11. Гриценко Е. С. Гендер в семантике слова [Текст] / Е. С. Гриценко // Гендер: язык, культура, коммуникация. — М.: МГЛУ, 2001. — С.13–14.
12. Дашеева В.В. Явление табуизации в некоторых традиционных антропонимиконах восточных народов // Вестник Бурятского государственного университета. Педагогика. Филология. Философия. — Улан-Удэ, № 8, 2015. — С. 55–59
13. Демченко Е.В. Семантико-синтаксические средства выражения категории вежливости в английском и русском языках: Автореф. дисс. на соиск. учен. степ. док. филол.наук. —Ростов-на-Дону, 2007. — 24 с.
14. Еникеева Д. Брак под микроскопом. — М., 2006. — 697 с.
15. Казакова А.В. Гендерные различия в речи литературных персонажей // Вестник Шадринского государственного педагогического института 4. — Шадринск, 2016. — С. 112–116.
16. Казанцев А.Ю. Термины родства и свойства в енисейских языках: типологический, этимологический и ареальный анализ: Дис... канд. филол. наук. — Томск, 2004. — 167 с.
17. Калинина О.Н. Проблематика гендерной лингвистики в Узбекистане // Молодой ученый. № 11 (115), 2016. — С. 1698–1700.
18. Капанадзе Л.А. О понятиях «Термин» и «Терминология» // Развитие лексики современного русского языка. — М.: Наука, 1965. — С.75–85.
19. Кирилина А.В. Гендерные аспекты языка и коммуникации: Автореф. док. филол. наук. — Москва, 2000, 40 с.
20. Кирилина А.В. Развитие гендерных исследований в лингвистике// Филологические науки, 1998, №2. — С.51–58.

21. Кириллова О.В. Гендерные различия в коммуникации // Славянские языки и культура. Материалы Международной научной конференции. — Тула, 2007.
22. Крюков М.В. Личное имя и термины родства // Ономастика Востока. — М.: Наука, 1980. — С.165–169.
23. Ласкова М.В. Грамматическая категория рода в аспекте гендерной лингвистики: дис. ... д-ра филол. наук. — Краснодар, 2001. — 301 с.
24. Лисицына В.О., Арутюнов Э.К. Гендерный фактор в языке (на материале неологизмов английского языка экономической сферы) // Историческая и социально-образовательная мысль, 2013, № 6 (22). — С. 180–183.
25. Никольская В.А. Английская паремиология с точки зрения гендерной теории // Гендер: язык, культура, коммуникация. — М.: МГЛУ, 2002. — С. 64–66.
26. Потапов В.В. Язык женщин и мужчин: фонетическая дифференциация // Известия АН. Серия литературы и языка, 1997, Том 56. — № 3. — С. 52–62.
27. Семенова М. Лебединая дорога. — М.: АСТ, 1999. — 559 с.
28. Скачкова И.И. Гендерная проблематика в зарубежном теоретическом языкознании: к истории вопроса // Теория и методология гендерных исследований. — Вестник ТГЭУ, № 4, 2009. — С. 119–132.
29. Страусов В.Н. Категория андроцентризма в лингвистике // Университетские чтения —Пятигорск, 2009. — Ч. 3: Секции 5-9 симпозиума 1. — 2009. — С. 49–56.
30. Трубачев О.Н. История славянских терминов родства и некоторых древнейших терминов общественного строя. — М.: Издательство АН СССР, 1959. — 212 с.
31. Тупицына И.А. Гендерные стереотипы и жизненный путь человека // Практикум по тендерной психологии / Под ред. И.С. Клециной. — СПб., 2003. — С. 128–139.
32. Тухтасинов И.М. Лингвокультурологические И гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков): Автореферат канд.дисс. — Ташкент, 2011. — 37 б.
33. Федорчук Е.В. Межъязыковая омонимия и паронимия в близкородственных языках: Дис.. канд. филол. наук. — Москва, 2001. — 255 с.
34. Цыганенко Г.П. Этимологический словарь русского языка: Более 5 000 слов. — Киев: Радянська школа, 1989. — 511 с.
35. Этимологический словарь Н. М. Шанского, 2-е изд. — М.: Дрофа, 2000. — 399 с.
36. Baker P.S. Pronouns. The Electronic Introduction to Old English. — Oxford: Blackwell, 2003.
37. Ergasheva G. Ingliz va o'zbek tillari frazeologizm paremijalarida gender aspektining qijosij-tipologik tadqiqi [Comparative Analysis of Praseological Unit of the English and the Uzbek Languages] / AKD. — Tashkent, 2011.

38. Etymology Online <https://www.etymonline.com/word/human> Last visited 19.04.2018
39. Hilloowala Yasmin Women's role in politics in the medieval Muslim world March 7, 2015 <http://www.medievalists.net/2015/03/womens-role-politics-medieval-muslim-world/> [Last visited 03.04.2018].
40. Online Etymology Dictionary <https://www.etymonline.com/word/queen>.
41. Warner K. Isabella of France. — Paris: The Rebel Queen Amberley Publishing, 2016, ISBN: 9781445647401
42. <http://kommersant.uz/uz/intervyu-uz/rasulova-biznes-va-oila>
43. <http://kommersant.uz/uz/yangiliklar/gender-kreditlash-biznesdagi-ayollar-a-idagi-stereotiplarni-uzgartirib-buladimi>
44. <http://www.ziyouz.uz/ru/proza/uzbekskaya-dramaturgiya/725-2012-09-08-04-15-32>
45. <https://zen.yandex.ru/media/booksforyou/poliglot-dmitrii-petrov-5-iarkih-iazikovyh-tendencii-kotorye-stremitelno-meniaiut-mir-5ab68d5aad0f22c18e31d5c9>.

References

1. Apresyan Yu.D. *Idei i metody sovremennoi strukturnoi lingvistiki* (Ideas and methods of modern structural linguistics), Moscow: Prosveshchenie, 1966, 345 p.
2. Bagana Zh, Khapilina E.V. *Nauchnye vedomosti. Ser. gumanitarnye nauki*, 2016, No 21 (242), Issue 31, pp. 31–35.
3. Bliznyuk O.V. *Sopostavitel'nyi semanticheskii analiz terminov rodstva v razlichnykh lingvokul'turakh* (Comparative semantic analysis of kinship terms in different linguacultures), extended abstract of candidate's thesis, Tver', 2006, 24 p.
4. Burukina O.A. *Yazyk. Soznanie. Kommunikatsiya. Vyp. 14* (Language. Consciousness. Communication. Vol. 14), Moscow, 2000, pp. 84-88.
5. Butinov Kh.A. *Sovetskaya Etnografiya*, Moscow: Nauka, 1977, No 3, pp. 65-75.
6. Vandysheva A.V. *Genderno orientirovannaya leksika v yazykovoi kartine mira (na materiale angliiskogo, russkogo i nemetskogo yazykov)* (Gender-Oriented Vocabulary in the Language Picture of the World (Based on English, Russian and German Languages)), extended abstract of candidate's thesis, Rostov-na-Donu, 2007, 25 p.
7. Gak V.G. *Printsipy i metody semanticheskikh issledovaniy* (Principles and methods of semantic research), Moscow: Nauka, 1976, pp.73-92.
8. Gvozdeva A.A. *Yazykovaya kartina mira: lingvokul'turologicheskie i tendernye osobennosti (na materiale khudozhestvennykh proizvedenii russkoyazychnykh i angloyazychnykh avtorov)* (Language picture of the world: linguistic, cultural and artistic features (based on artistic works by Russian-language and English-language authors)), candidate's thesis, Tambov, 2003, 151 p.
9. Golev N.D. *Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo universiteta. Filologiya*, 2013, No 6 (26), pp. 14-27.

10. Goroshko E. I. *Vvedenie v gendernye issledovaniya* (Introduction to Gender Studies), Khar'kov: KhTsGI, Saint Petersburg: Aleteiya, 2001, part 1, pp. 508–542.
11. Gritsenko E. S. *Gender: yazyk, kul'tura, kommunikatsiya* (Gender: language, culture, communication), Moscow: MGLU, 2001, pp. 13–14.
12. Dasheeva V.V. *Vestnik Buryatskogo gosudarstvennogo universiteta. Pedagogika. Filologiya. Filosofiya*, Ulan-Ude, No 8, 2015, pp. 55-59.
13. Demchenko E.V. *Semantiko-sintaksicheskie sredstva vyrazheniya kategorii vezhlivosti v angliiskom i russkom yazykakh* (Semantic and syntactic means of expressing the category of politeness in English and Russian languages), extended abstract of Doctor's thesis, Rostov-na-Donu, 2007, 24 p.
14. Enikeeva D. *Brak pod mikroskopom* (Marriage under the microscope), Moscow, 2006, 697 p.
15. Kazakova A.V. *Vestnik Shadrinskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo instituta*, 4, Shadrinsk, 2016, pp. 112-116.
16. Kazantsev A.Yu. *Terminy rodstva i svoistva v eniseiskikh yazykakh: tipologicheskii, etimologicheskii i areal'nyi analiz* (Kinship and affinity terms in Yeniseian languages: typological, etymological and areal analysis), candidate's thesis, Tomsk, 2004, 167 p.
17. Kalinina O.N. *Molodoi uchenyi*, 2016, No 11 (115), pp. 1698–1700.
18. Kapanadze L.A. *Razvitie leksiki sovremennogo russkogo yazyka* (Development of the vocabulary of the modern Russian language), Moscow: Nauka, 1965, pp. 75-85.
19. Kirilina A.V. *Gendernye aspekty yazyka i kommunikatsii* (Gender aspects of language and communication), extended abstract of Doctor's thesis, Moscow, 2000, 40 p.
20. Kirilina A.V. *Filologicheskie nauki*, 1998, No 2, pp. 51-58.
21. Kirillova O.V. *Slavyanskii yazyki i kul'tura* (Slavic languages and culture), Proceedings of the International Conference, Tula, 2007.
22. Kryukov M.V. *Onomastika Vostoka* (Onomastics of the East), Moscow: Nauka, 1980, pp.165-169.
23. Laskova M.V. *Grammaticheskaya kategoriya roda v aspekte gendernoi lingvistiki* (Grammatical category of gender in the aspect of gender linguistics), candidate's thesis, Krasnodar, 2001, 301 p.
24. Lisitsyna V.O., Arutyunov E.K. *Istoricheskaya i sotsial'no-obrazovatel'naya mysl'*, 2013, No 6 (22), pp. 180-183.
25. Nikol'skaya V.A. *Gender: yazyk, kul'tura, kommunikatsiya* (Gender: language, culture, communication), Moscow: MGLU, 2002, pp. 64-66.
26. Potapov V.V. *Izvestiya AN. Seriya literatury i yazyka*, 1997, vol. 56, No 3, pp. 53-62.
27. Semenova M. *Lebedinaya doroga* (Swan Road), Moscow: AST, 1999, 559 p.
28. Skachkova I.I. *Vestnik TGEU*, No 4, 2009, pp. 129-130.
29. Strausov V.N. *Universitetskie chteniya*, Pyatigorsk, 2009, part 3, pp. 49–56.
30. Trubachev O.N. *Istoriya slavyanskikh terminov rodstva i nekotorykh drevneishikh terminov obshchestvennogo stroya* (History of Slavic terms of kinship and some ancient terms of social structure), Moscow: Izdatel'stvo AN SSSR, 1959, 212 p.

31. Tupitsyna I.A. *Praktikum po tendernoi psikhologii* (Workshop on gender psychology), ed. I.S. Kletsina, Saint Petersburg, 2003, pp. 128-139.
32. Tukhtasinov I.M. *Lingvokul'turologicheskie i gendernye osobennosti slozhnykh slov v khudozhestvennom tekste (na material angliiskogo i uzbekskogo yazykov)* (Linguatsultural and Gender Features of Tsompound Shchords in tkhe Feature Tekht), extended abstract of candidate's thesis, Tashkent, 2011, 37 b.
33. Fedorchuk E.V. *Mezh'yazykovaya omonimiya i paronimiya v blizkorodstvennykh yazykakh* (Interlinguistic homonymy and paronymy in closely related languages), candidate's thesis, Moscow, 2001, 255 p.
34. Tsyganenko G.P. *Etimologicheskii slovar' russkogo yazyka* (Etymological dictionary of the Russian language), 1989, 511 p.
35. *Etimologicheskii slovar' N. M. Shanskogo* (Etymological Dictionary of N. M. Shansky), 2 ed., Moscow: Drofa, 2000, 399 p.
36. Baker P.S. (2003), *Pronouns. The Electronic Introduction to Old English*, Oxford: Blackwell.
37. Ergasheva G. *Ingliz va o'zbek tillari frazeologizm paremijalarida gender aspektining qijosij-tipologik tadqiqi* (Comparative Analysis of Praseological Unit of the English and the Uzbek Languages), extended abstract of candidate's thesis, Tashkent, 2011.
38. Etymology Online, available at: <https://www.etymonline.com/word/human> Last visited 19.04.2018
39. Hilloomwala Yasmin Women's role in politics in the medieval Muslim world March 7, 2015, available at: <http://www.medievalists.net/2015/03/womens-role-politics-medieval-muslim-world/> [Last visited 03.04.2018].
40. Online Etymology Dictoinary, available at: <https://www.etymonline.com/word/queen>.
41. Warner K. *Isabella of France, Paris: The Rebel Queen* Amberley Publishing, 2016, ISBN: 9781445647401
42. <http://kommersant.uz/uz/intervyu-uz/rasulova-biznes-va-oila>
43. <http://kommersant.uz/uz/yangiliklar/gender-kreditlash-biznesdagi-ayollar-a-idagi-stereotiplarni-uzgartirib-buladimi>
44. <http://www.ziyouz.uz/ru/proza/uzbekskaya-dramaturgiya/725-2012-09-08-04-15-32>
45. <https://zen.yandex.ru/media/booksforyou/poliglot-dmitrii-petrov-5-iarkih-iazykovyh-tendencii-kotorye-stremitelno-meniaiut-mir-5ab68d5aad0f22c18e31d5c9>.